

TILSHUNOSLIKDA TRANSFORMATSIYA MASALASI

Ergashev Alimardon

JDFU o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikda transformatsiya masalasi muhokama qilingan. Transformatsiya jarayonlari o'zbek tili sintaksisida eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Tilshunoslik, transformatsiya, sintaksis, qo'shma gaplar va soda gaplar transformatsiyasi*

Mavzuni boshlashdan oldin transformatsiya so'zi va uning tilshunoslik fanidagi o'rni haqida fikr yuritish lozim. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da transformatsiya tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan:

"Transformatsiya (lot. transformation – o'zgartirish) tish. Asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish (mas. O'qituvchi qoidani tushuntirdi. // Qoida o'qituvchi tomonidan tushuntirildi). Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev sintaktik transformatsiyaga quyidagicha izoh beradi:

"Sintaktik bo'lak vazifasida leksemashakl va birikmashakldan tashqari gapshakl ham kelishi mumkin. Buning uchun gapshakl tarkibida ma'lum grammatik o'zgarish amalga oshiriladi. Gapshakl tarkibida amalga oshiriladigan bunday o'zgarishlarga transformatsiya deyiladi (lot. transformatio – aylanish, boshqa shaklga o'tkazish)".¹

Professor Azim Hojiyev o'zining "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" kitobida transformatsiya tushunchasini quyidagicha izohlaydi:

"Transformatsiya (lot. Transformatio – qayta tuzish). Asosiy (yader) sintaktik strukturani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tur sintaktik struktura hosil qilish. Mas, aniq konstruksiyaning majhul konstruksiyaga aylantirilishi (transformatsiyalanishi): *Qizcha she'rni o'qidi. – She'r qizcha tomonidan o'qildi* kabi."²

Yuqoridagi ta'riflardan ham sezilib turibdiki, ma'lum bir sintaktik qurilmani ma'lum qonun-qoidalar asosida o'zgartirib, yangi sintaktik qurilma hosil qilish transformatsiya hisoblanadi. Bu jarayon barcha tillar qatori o'zbek tiliga ham xosdir.

Gapshakl tugal grammatik shakllangan bo'ladi, nutqda fikr anglatish birligi – jumla vazifasida keladi, shakliy tugallik kesim vazifasida keladigan birlikka tuslovchi qo'shish bilan ta'minlanadi: *Men universitetda o'qiyman* kabi.

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent.: 2010, 351-bet.

² Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent.: 1985, 94-bet.

Jumla tarkibida ega bo'lak bo'lib, uch shaxs-son ma'nosidan biri ifodalanadigan sintaktik birlik keladi va unga mos ravishda kesim tarkibida ham uch shaxs-son tuslovchilaridan biri qatnashadi. Tuslanishda, shuningdek, kesim tarkibidagi bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, mayl shakllari voqe bo'ladigan o'zgarishlar gapshakl paradigmasini hosil qiladi (yunoncha paradeigma - "namuna").

Gapshaklning bunday grammatik kategoriyalar shakllari bo'yicha o'zgarishi ayrim adabiyotlarda transformatsiya deb talqin qilinadi. Asli bunday o'zgarishlarni paradigmatic o'zgarishlar deb talqin qilish to'g'riroqdir.

Sintaktik bo'lak vazifasida turli til birliklari kelishi mumkin. Mana shunday birliklar qatoriga leksemashakl, birikmashakl qatorida gapshakl ni ham kiritishimiz mumkin.

Gapshakl biror sintaktik bo'lak vazifasida kelishga ma'lum grammatik o'zgarishlar bilan hozirlanadi. Shu bilan birga gapshakl ni uning tarkibida biror o'zgartirishni amalga oshirmay, ma'lum bir yordamchi vositasida biror sintaktik bo'lak vazifasida ham ishlatish mumkin. Masalan, deb yordamchisi bilan ishlatiladi. Bunda sodda gap vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan: *U Davlatbekovdan hech qachon bunday maqtov eshitmagan, eshitaman deb o'ylamagan edi* (P. Qodirov).

Yana shunday holatda *uchun* ko'makchisi bilan ishlatilishi mumkin. Bunda sodda gapshakl maqsad holi vazifasini bajargan: *Lutfiniso dam o'tmasdan kelib, yomon ko'zdan asrasin uchun isiriq tutattirar edi*.

Demak, bunday ishlatishlarda gapshakl transformatsiyalanmaydi, aynan saqlanadi; gapshakl ning biror sintaktik bo'lak vazifasida kelishiga yordamchi vositalar orqali erishiladi.

Gapshakl ni transformatsiyalashning bir necha usullari mavjud. Nutqda eng ko'p uchraydigan usul – tashqi transformatsiyalash usuli. Bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan bu usul uchun umumiy belgi — gapshakl ega bo'lagining o'z o'rnida shakliy o'zgarishsiz saqlanishi. O'zgarish gapshakl ning kesim bo'lagida bir necha ko'rinishda voqe bo'ladi. Qanday o'zgarish voqe bo'lishi kesimning qaysi turkum leksemasi bilan qanday shaklda ifodalanishiga bog'liq.

Gapshakl ning tashqi transformatsiyalanishi

Bunday gapshakl larning transformatsiyalanishi nutqda ko'p uchramaydi. Kesimi sifat leksema bilan, kesimlik leksemasi bilan, ot leksema bilan ifodalanib, turlicha transformatsiya qilinadi.

Gapshakl ning ega bo'lagi odatda ot leksemashakl bilan ifodalanadi, shunga ko'ra kesimiga III shaxs tuslovchisi qo'shiladi. Transformatsiyalashda kesim tarkibidagi tuslovchi va undan oldin keladigan zamon ko'rsatkichi tashlanadi; zamon yasovchisi va tuslovchi bu yerda nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanayotgani sababli tashlanayotgan qism ko'rinmaydi:

Soch + lar + i + ØII³ o'siq + ØVIII⁴ + ØVII⁵

[Soch + lar + i + ØII o'siq + – + –] X [yigit]

Bunday transformatsiyalash natijasida gapshakl predikativ shakldan atributiv shaklga o'tadi. Transformatsiyalashda tashlanadigan qism transformant deyiladi. Yuqoridagi tur transformatsiyalashda zamon yasovchisi va tuslovchi transformantga teng.

Ushbu transformantlar tashlanganidan keyin gapshakl grammatik tugallangan shakl holatini yo'qotadi, go'yo asosga teng bo'ladi. Ana shunday asosni sifatlovchi vazifasida keltirish uchun unga sintaktik vazifa ko'rsatkichi qo'shilishi lozim. Ushbu transformatsiyalashda sintaktik vazifa ko'rsatkichi bo'lib "sifatlovchi" sintaktik semasi qatnashadi. Transformatsiyalash jarayonida qo'shiladigan bunday ko'rsatkich transformator deyiladi (lot. Transformare – bir holatdan boshqa holatga o'tkazish). Grammatik ko'rsatkichlarni yuqoridagicha tashlash, qo'shish, almashtirish kabi jarayon natijasida yuzaga kelgan qurilmaga transformant deyiladi. Biz fikrimizni sodda gaplarni sintaktik bo'lak vazifasida qo'llash uchun sodda gapning transformatsiyalanishidan boshlaganligimizning sababi shuki, qo'shma gapning sodda gapshaklga transformatsiyalanishi birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Transformatsiya tushunchasining mazmunini yaxshi tushunib olish uchun, avvalo, sodda gapshaklning sintaktik bo'lakka transformatsiyalanishini tushunish zarur.

Fikrimizni soddagapshaklning tashqi transformatsiyalanishi yuzasidan davom ettiramiz. Bunday jarayonda gapshaklning kesimi qaysi turkum so'zi bilan ifodalanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday transformatsiyalashda asosiy sintaktik o'zgarish gapning kesim bo'lagida amalga oshiriladi. Soddagapshaklning kesimi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- 1) ism leksema bilan;
- 2) fe'l leksema bilan.

Ism leksema bilan ifodalangan kesim ot kesim deb yuritiladi. Ot kesimli gaplarda kesim sifat, ot, ravish, son, olmosh va otlashgan so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Kesimi sifat leksemasi bilan ifodalangan soddagapshaklda kesim tarkibidagi shaxs-son, zamon ma'nolarini bildiruvchi tuslovchi qo'shimchalar belgisiz (nol) ko'rsatkich orqali ifodalanganligi sababli tashlanayotgan qism ko'rinmaydi, bu holatda tuslovchilarni maxsus belgilar bilan ifodalab olish zarur bo'ladi. Tuslovchilar tashlanganidan keyin hosil qilingan shaklga –bo'l yordamchisini qo'shib fe'llashtirilgan, so'ngra —gan sifatdosh yasovchisi qo'shilgan: *Ust-boshi jiqqa ho'l bo'lib ketgan Olimjon* (O'tkir Hoshimov). Bunday

³ ØII – kelishik affiksining nol ko'rsatkichli formasi.

⁴ ØVIII – zamon affiksining nol ko'rsatkichli formasi.

⁵ ØVII – tuslovchi (shaxs-son affiksi) ning nol ko'rsatkichli ifodalanishi. Bu yerda bog'lama nazarda tutilgan.

transformatsiyalash natijasida soddagapshakl sifatlovchi aniqlovchi sintaktik vazifasini bajarib kelyapti.

Mana bu jumlada qatnashgan birinchi transformaning kesimi modal soz bilan (ishtoni yo'q), ikkinchi transformaning kesimi sifat so'z turkumiga oid so'z bilan (tizzasi yirtiq) ifodalangan; bu transformalar asli sifatlovchi vazifasida kelgan, lekin sifatlanmishi (kishi) tushirilgani tufayli otlashib, birinchi transformaga ega vazifasida, ikkinchi transformaga vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan:

Ishtoni yo'q tizzasi yirtiqqa kulmasa ekan-da! (Pirimqul Qodirov).

Kesimi ot leksema bilan ifodalangan gapshaklning transformatsiyalanishi murakkabroq voqe bo'ladi. Bunday ifodalangan kesimda son va kelishik ko'rsatkichlaridan keyin tuslovchi qo'shiladi. Biror sintaktik bo'lak vazifasida ishlatish uchun bunday gapshakl kesimi tarkibidagi son va kelishik (substantiv shakl hosil qiluvchilar) va tuslovchi (predikativ shakl hosil qiluvchi) tashlanadi, natijada gapshakl grammatik shakllanmagan holatga o'tadi. Ana shunday asosga sintaktik vazifada kelishi uchun ma'lum bir shakl ko'rsatkichi qo'shiladi:

Sifatlovchi vazifasida kelishi "sifatlovchi" sintaktik semasini qo'shish bilan ta'minlanadi: *devori oppoq ganch* sodda gapshaklini misol qilib keltirish mumkin. Bu soddagapshakl quyidagi gap tarkibida qollangan:

Yo'lchi. *devori oppoq ganch* imorat oldida to'xtadi.

Bunday transformatsiyalangan gapshakl sifatlovchi vazifasida kelganida –*li* shakl yasovchisini qo'shib ham ishlatiladi: ... *devori oppoq ganchli imorat* kabi.

Xuddi shunday transformaga *bo'l* yordamchisi bilan ishlatilishi mumkin, bu holda hosil qilingan transformaga *uchun* ko'makchisi bilan sabab hollovchisi vazifasini bajargan:

Tagligi charm bo'lgani uchun goh toshda, goh mayin tog' o'tida toyib ketar edi.
Kesimi fe'l leksema bilan ifodalangan kesim ko'pchilikni tashkil etadi.

Gapshaklni biror sintaktik bo'lak vazifasida ishlatish uchun kesim tarkibidagi tuslovchi tashlanadi yoki shu shaxs —son nisbatlovchisiga almashtiriladi, zamon yasovchisi unga ma'no jihatidan muqobil sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi yasovchisiga almashtiriladi.

I. Kesim tarkibidagi zamon yasovchisi -gan sifatdosh yasovchisiga almashtirilishi mumkin. Bunday holatda gapshakl bir nechta yordamchilar orqali turli sintaktik vazifada keladi:

Tuslovchini tashlash va o'tgan zamon yasovchisini –*gan* sifatdosh yasovchisiga almashtirish bilan hosil qilingan transformaga predikativ shakldan atributiv shaklga o'tib, to'g'ridan to'g'ri sifatlovchi vazifasida ishlatilgan, chunki sifatdosh shakli — fe'lining sifatlovchi vazifasiga xoslangan shakli hisoblanadi: *Men burolmagan tutqichni aylantirishga harakat qilib ko'rdi* (O'. Hoshimov).

-*da* kelishik qo'shimchasi yordamida payt hollovchisi vazifasida kelgan:

Nogahon qo'llar uzilganda orqaga tashlanib... (Oybek).

-*uchun* ko'makchisi yordamida sabab hollovchisi vazifasida kelishi mumkin:

U *mollarning hammasi sandiqqa joylangani uchun* qayta ko'rishni istamadi (Oybek).

-gan sifatdoshi shaklidagi transformasiya to'ldiruvchi, ega, kesim vazifalarida ham ishlatilgan:

1) bosh kelishik shaklida ega vazifasida: *Umar Zakonchi o'z qo'li bilan ruchka sovg'a qilgani* bolani judayam sevintirib yubordi (O'. Hoshimov);

2) *-lik* qo'shimchasi qo'shilishi natijasida hosil qilingan transformasiya kesim vazifasida qo'llangan: *Manmanlik – xudo urganlik* (Oybek).

Kesimi hozirgi zamon shaklida ishlatilgan gapshakl transformatsiya qilinganda *-yotgan* sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan. Bunday transformasiya biror shakl yasovchisi qo'shilmagan holda sifatlovchi vazifasida ishlatilgan: *...ertaga Andijondan dadasi bilan tog'asi sovchi bolib kelayotgan* yigitni... o'ylar edi.

Egalik affiksi va *-dan* kelishigi bilan qo'llangan transformasiya sabab holi vazifasida ishlatilgan: *Toshkentlik yigit ...astoydil ish qilayotganidan* juda mamnun ko'rinar edi (P. Qodirov).

Quyidagi misolda *-di* zamon yasovchisi *-r* sifatdosh yasovchisi bilan almashtirilgan:

I. Bo'lishli-bo'lishsiz shakl takrori bilan ifodalaniib, tarz hollovchisi vazifasida kelgan: *Yer selgir-selgimas* traktorni dalaga soldik (O'. Hoshimov).

II. Zamon yasovchisi ravishdosh yasovchisiga almashtirilgan, tuslovchi tashlangan:

1) Hozirgi-kelasi zamon yasovchisi *-guncha* ravishdosh yasovchisiga almashtirilgan va bunday transformasiya payt hollovchisi vazifasida kelgan: *Men kelguncha* shu yerda yot (P. Qodirov).

2) O'tgan zamon yasovchisi *-gach* ravishdosh yasovchisiga almashtirilib, bunday transformasiya payt hollovchisi vazifasida ishlatilgan: *Oradan ikki kun o'tgach...* sovchilar chiqdi (H. G'ulom).

III. Gapshakl tarkibidagi zamon yasovchisini fe'ning *-sh* harakat nomi shakliga almashtirib hosil qilingan transformada tuslovchi egalik affiksiga almashtirilib, bosh kelishik shakli va bilan ko'makchisi qo'shilib payt hollovchisi vazifasida ishlatilgan:

Ho'l, muzdav qo'li yuzimga tegishi bilan tag'in lampamoy hidi keldi (O'tkir Hoshimov).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent.: 2010.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent.: 1985.